

OFFSHOR KOMPANIYALARNING XALQARO XUSUSIY HUQUQDAGI MAQOMI

Islombek Ne'matillayev

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura bosqichining Xalqaro tijorat huquqi yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15650739>

Annotatsiya. Mazkur maqolada offshor kompaniyalarining xalqaro xususiy huquq doirasidagi huquqiy maqomi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor kompaniyaga nisbatan qo'llaniladigan shaxsiy qonunni (*lex societatis*) aniqlovchi ikkita asosiy yondashuv — inkorporatsiya nazariyasi va asosiy faoliyat ko'rsatiladigan joy nazariyasining (*real seat theory*) nazariy hamda amaliy tafovutlariga qaratiladi. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, keys-tahlil va doktrinal yondashuvlar orqali offshor yurisdiksiyalarning huquqiy xususiyatlari, xalqaro sud amaliyoti va O'zbekiston qonunchiligidagi mavjud tartiblar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Offshor kompaniyalar, xalqaro xususiy huquq, inkorporatsiya nazariyasi, asosiy faoliyat joyi nazariyasi, *lex societatis*, yuridik maqom, huquqiy tan olish, kollizion norma, O'zbekiston qonunchiligi, huquqiy javobgarlik.

Abstract. This article analyzes the legal status of offshore companies within the framework of private international law. The main focus is placed on the theoretical and practical differences between two principal approaches to determining the personal law (*lex societatis*) applicable to a company — the incorporation theory and the real seat theory. The study employs comparative-legal, case-analysis, and doctrinal methods to examine the legal characteristics of offshore jurisdictions, international judicial practice, and the relevant regulations under Uzbekistan's legislation.

Keywords: Offshore companies, private international law, incorporation theory, real seat theory, *lex societatis*, legal status, legal recognition, conflict of laws, Uzbekistan legislation, legal liability.

Аннотация. В данной статье анализируется правовой статус офшорных компаний в рамках международного частного права. Основное внимание уделяется теоретическим и практическим различиям между двумя основными подходами к определению личного закона компании (*lex societatis*) — теорией инкорпорации и теорией основного места деятельности (*real seat theory*). В исследовании используются сравнительно-правовой, кейс-метод и доктринальный подход для анализа правовых особенностей офшорных юрисдикций, международной судебной практики и действующего законодательства Узбекистана.

Ключевые слова: офшорные компании, международное частное право, теория инкорпорации, теория основного места деятельности, *lex societatis*, правовой статус, правовое признание, коллизионные нормы, законодательство Узбекистана, правовая ответственность.

Kirish

Xar bir biznesning asosiy maqsadi bu minimal xarajatlar evaziga maksimal daromadga erishish. Bu jarayonda soliq omili alohida ahamiyatga ega sababi soliq stavkalarining joriy etilishi yoki o'zgarishi biznes faoliyatining rentabelligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois so'ngi yillarda offshor kompaniyalar orqali biznes yuritishga bo'lgan qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Offshor kompaniya deganda o'z faoliyatini ro'yxatdan o'tgan mamlakatdan tashqarida olib boradigan va asosan soliq, huquqiy yoki moliyaviy imtiyozlardan foydalanish maqsadida maxsus yurisdiksiyalarda tashkil etilgan yuridik shaxs tushuniladi.

Ushbu kompaniyalar ko'pincha soliq yukini optimallashtirish, aktivlarni himoya qilish yoki maxfiylikni ta'minlash uchun tashkil qilinadi va ko'pincha Britaniya Virgin orollari, Kayman orollari, Panama va boshqa "offshor yurisdiksiyalar"da ro'yxatdan o'tkaziladi. Ammo shuni ta'kidlab o'tish kerakki bu holat huquqiy va iqtisodiy jihatdan bir qator savollarni keltirib chiqarmoqda, xususan, bunday kompaniyalarni xalqaro xususiy huquq doirasida qanday maqomda tan olish, ularning huquqiy layoqati va javobgarligini aniqlash muhim vazifaga aylangan.

Adabiyotlar sharhi

Offshor kompaniyalarga bag'ishlangan ilmiy adabiytlarni o'rganish davomida duch kelinadigan asosiy masala bu offshor kompaniyalar bilan bog'liq kollizion va tartibga solish muammolari.

S. Rammeloo¹ o'z tadqiqotida xalqaro xususiy huquqi doirasida korporatsiyalarni tan olish tamoyillaridagi tafovutlarni tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotga ko'ra anglo-sakson huquq oilasiga mansub bo'lgan davlatlar xususan Buyuk Britaniya, AQSh va boshqa bir nechta davlatlar tomonidan qo'llaniladigan "inkorporatsiya nazariyasi" bilan romano german huquqiy oilasi tarkibiga kiruvchi davlatlardan biri Germaniya amaliyotidagi asosiy faoliyat ko'rsatiladigan joy (real state theory) konseptsiyasi o'rtasidagi juda katta farqlar va ziddiyatlar mavjudligi offshor kompaniyalarni tan olishda va ularga nisbatan qo'llaniladigan reglamentlar bo'yicha jiddiy kelishmovchiliklarga olib keladi.

N. Osoyanu² ham o'z tadqiqotlarida masalani aynan shu tomoniga etibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, AQShda yurisdiksiya (sudlov) masalalarida odatda inkorporatsiya prinsipi qo'llaniladi, ya'ni kompaniya qayerda ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, o'sha davlatning huquqi qo'llaniladi. Biroq soliqqa tortish bilan bog'liq masalalarda esa asosiy faoliyat ko'rsatiladigan joy konseptsiyasi qo'llaniladi.

Ushbu tadqiqotda qo'yilgan asosiy savol bu aynan qaysi mezon — inkorporatsiya yoki asosiy faoliyat ko'rsatiladigan joy (real state theory) konseptsiyasi — kompaniyaning "millatini" (nationality) aniqlashda asosiy bo'lishi kerak? Osoyanuga ko'ra offshor kompaniyalar "haqiqiy" biznes faoliyatini ro'yxatdan o'tgan davlatda yuritmasiligidan kelib chiqilsa bu holatda asosiy faoliyat ko'rsatiladigan joy konseptsiyasini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

D. Nougayrède³ tomonidan o'tqazilgan tadqiqot esa offshor kompaniyalar ayniqsa endi rivojlanayotgan davlatlarda kuchsiz nazorat mexanizmlari mavjudligi sababli keng tarqalishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, offshor hududlardagi kompaniyalar daromadlarni yashirish, soliqlardan qochish va hatto jinoyat yo'li bilan orttirilgan mablag'larni yuvish yo'lida keng qo'llaniladi.

¹ Rammeloo, S. (2001). *Corporations in Private International Law: A European Perspective*. Oxford University Press.

² Осо́яну, Н. (2013). Правовое регулирование личного статуса юридического лица в международном частном праве. *Studii Juridice Universitare*, 3–4, 143–158.

³ Nougayrède, D. (2016). *The use of offshor companies in emerging market economies: a case study*. *Columbia Journal of European Law*.

Bu esa nafaqat milliy darajadagi iqtisodiy barqarorlikka, balki global moliyaviy tizimga ham xavf tug'diradi.

P. Willoughby⁴ esa o'z maqolasida aksincha offshor kompaniyalardan xalqaro xususiy huquq doirasida qonuniy foydalanish usullarini o'rganadi. Willoughby offshor kompaniyalar ko'pincha soliqdan qochish yoki noqonuniy faoliyatlar olib borishni osonlashtirgani uchun tanqid ostiga olinayotganini tan olgan holda, ularning mol-mulkni himoya qilish, xalqaro biznes yuritishni muvofiqlashtirish va aktivlarini vorisga o'tkazishni osonlashtirish kabi qonuniy maqsadlarda xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Xalqaro shartnomalar huquqi va yusidiktsiya masalalari H. Schulze⁵ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda chuqur o'rganilgan bo'lib, u offshor kompaniyalar bilan bog'liq nizolarni hal qilishdagi murakkabliklarni yoritadi. Tadqiqotda ta'kidlanishicha, offshor kompaniyalar ko'p yurisdiksiyalari xarakterga ega bo'lganligi sababli xalqaro arbitraj qarorlarini ijro etish, vakolatli yurisdiksiyani aniqlash hamda shartnoma shartlarining haqiqiylikini belgilash ko'pincha tortishuvlarga olib keladi va nizoni hal etish jaraiyoni sezilarli darajada cho'zilib ketadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ilmiy manbalar offshor kompaniyalar bilan bog'liq bo'lgan xalqaro xususiy huquq masalalarining murakkab va ko'p qirrali ekanini ko'rsatadi.

Metod

Mazkur tadqiqot sifat jihatdan yondashilgan huquqiy-tahliliy izlanish bo'lib, asosiy maqsad — xalqaro xususiy huquqda offshor kompaniyalar maqomini aniqlovchi nazariy asoslar va amaliy mexanizmlarni tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

- Qiyosiy-huquqiy yondashuv — turli yurisdiksiyalar tomonidan qo'llaniladigan lex societatis aniqlashdagi yondashuvlar, ya'ni inkorporatsiya nazariyasi va asosiy faoliyat joyi (real seat theory) nazariyasi bir-biriga qiyoslab o'rganiladi. Bu yondashuv orqali kompaniyaning huquqiy maqomi qanday aniqlanishi va bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar aniqlanadi.

- Amaliy keys-tahlil (case study) — xalqaro sud amaliyotidagi muhim keyslarni o'rganish orqali nazariy yondashuvlarning amaliy natijalari ochib beriladi.

- Doktrinal yondashuv — offshor kompaniyalar bilan bog'liq ilmiy maqolalar, monografiyalar, kitoblar tahlil qilinadi.

Muhokama va natijalar

Xalqaro xususiy huquqda yuridik shaxslar, ayniqsa korporatsiyalar, bilan bog'liq huquqiy munosabatlar ko'p jihatdan ularning "millati" va shaxsiy qonuni (lex societatis - kompaniyaga nisbatan qo'llaniladigan asosiy qonunchilik) tushunchalariga tayanadi. Bu asosiy tushunchalar xorijiy korporatsiyalarni davlatlar qanday tan olishi va tartibga solishini belgilaydi⁶. Jismoniy shaxslardan farqli o'laroq, ularning millati tug'ilish yoki fuqarolikka qabul qilish orqali aniqlansa, yuridik shaxslarning "millati" — bu huquqiy konstruktsiya bo'lib, ular bog'langan, ya'ni "yuridik vatani" hisoblangan davlatni anglatadi.

⁴ Willoughby, P. (2012). Private International Law – Offshor Trusts and companies. Amicus Curiae, 1998(4). <https://doi.org/10.14296/ac.v1998i4.1617>

⁵ Schulze, H. C. A. W. (1995). Private international law and jurisdictional problems relating to offshor joint venture agreements. The Comparative and International Law Journal of Southern Africa

⁶ Гетьман-Павлова, И. В. (2011). Международное частное право: Учебник (3-е изд., перер. и доп.).

Biroq, yuridik shaxsning millatini aniqlash bo'yicha yagona xalqaro standart mavjud emas. Har bir davlat o'z ichki qonunchiligi va kollizion normalarida turli bog'lovchi omillardan (connecting factors) foydalanadi, bu esa amaliyotda qarama-qarshi natijalarga olib kelishi mumkin. Bu borada eng ko'p qo'llaniladigan ikki asosiy yondashuv mavjud: inkorporatsiya joyi (place of incorporation) va asosiy faoliyat ko'rsatiladigan joy (real state theory) konseptsiyasi.

Inkorporatsiya nazariyasiga ko'ra, kompaniya yuridik jihatdan mavjud hisoblanadi va uning millati (ya'ni, qaysi davlat qonunlariga bo'ysunishi) u qaysi yurisdiksiyada rasmiy ro'yxatdan o'tganiga qarab aniqlanadi. Ushbu nazariya odatda ingliz huquqi tizimiga mansub davlatlar — Buyuk Britaniya, AQSH va ko'plab offshor moliyaviy markazlar tomonidan qo'llaniladi. Ammo bu yondashuvning kamchiliklari ham bor. U faqat qog'ozda mavjud bo'lgan, amalda hech qanday real biznes faoliyati olib bormaydigan “qobiq kompaniyalar”ni (shell company) yaratishga imkon beradi. Shu sababli, offshor kompaniyalar ko'pincha inkorporatsiya nazariyasiga amal qiluvchi yurisdiksiyalarda tashkil etiladi.

Boshqa tomondan, asosiy faoliyat ko'rsatiladigan joy nazariyasi (fransuzcha “siège réel” yoki “siège social réel” inglizcha “real state theory” nomi bilan mashhur) kompaniyaning yuridik maqomini uning haqiqiy bosh ofisi, markaziy boshqaruvi yoki asosiy biznes faoliyati amalga oshirilayotgan joyga qarab aniqlaydi. Bu nazariyaga ko'ra, kompaniyaga nisbatan qo'llaniladigan qonun — kompaniya real ravishda faoliyat yuritayotgan davlat qonunchiligi hisoblanadi. Bu yondashuv Germaniya, Fransiya, Belgiya kabi romano-german huquq tizimiga ega davlatlarda keng qo'llaniladi. Unga ko'ra, kompaniyaning yuridik maqomi iqtisodiy haqiqatga asoslanishi kerak — ya'ni, kompaniya qayerda boshqariladi, foyda oladi va faoliyat yuritadi, shuning asosida qaysi davlat qonuni qo'llanilishi kerakligi belgilanadi. Ammo tanqidchilar bu nazariyaga biroz shubha bilan qarashadi sababi jahon iqtisodiyotida ko'plab kompaniyalar bir nechta davlatda faoliyat yuritayotganini hisobga olsak, bitta aniq “real bosh ofis”ni belgilash oson emas.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, offshor yurisdiksiyalarda, masalan, Kayman orollari, Bermuda va Britaniya Virgin orollari asosan inkorporatsiya nazariyasiga amal qiladi. Offshor kompaniyalar esa ushbu hududlarda faqat ro'yxatdan o'tgan holda asosiy faoliyatini boshqa hududlarda amalga oshiradi. Bunday huquqiy tizim xalqaro mijozlarni jalb qilish uchun ataylab yaratilgan bo'lib, unda byurokratik to'siqlar minimal darajada bo'ladi, soliq siyosati raqobatbardosh, shuningdek, maxfiylikni ta'minlashga katta e'tibor qaratiladi. Masalan, Britaniya Virgin orollarida 2004-yilda qabul qilingan “Business Companies Act” (Kompaniyalar to'g'risidagi qonun) asosida kompaniyalar hech qanday tarzda benefitsiar ma'lumotlarini ommaga oshkor etmasdan ro'yxatdan o'tishi, mahalliy ofis yoki xodimlar bo'lishi talab etilmasdan faoliyat yuritishi mumkin⁷. Bu esa asosan aktivlarni boshqarish va transchegaraviy investitsiya tuzilmalarini yaratishda juda jozibador hisoblanadi. Ushbu modelga Cambridge Gas Transportation Corp v. Official Committee of Unsecured Creditors of Navigator Holdings Plc [2006] UKPC 26 keysi muhim misollaridan biri hisoblanadi⁸.

⁷ British Virgin Islands. (2004). Business Companies Act (No. 16 of 2004). Government of the Virgin Islands. http://www.bvi.gov.vg/sites/default/files/business_companies_act.pdf

⁸ Cambridge Gas Transportation Corp. v. Official Committee of Unsecured Creditors of Navigator Holdings Plc. (2006). UKPC 26. Privy Council. <http://www.bailii.org/uk/cases/UKPC/2006/26.html>

Mazkur ishda Britaniya Qirollik Kengashi (Privy Council) Britaniya Virgin orollarida (BVI) ro'yxatdan o'tgan kompaniya bo'yicha xorijiy bankrotlik jarayonining yurisdiksiyasini tan oladi, garchi bu kompaniyaning BVI hududida iqtisodiy faoliyati deyarli mavjud bo'lmasa ham. Ushbu holat shuni ko'rsatadiki, inkorporatsiya nazariyasiga ko'ra offshor kompaniyalarga ro'yxatdan o'tgan davlatida hech qanday faoliyat yuritmasa ham ular yuridik shaxs sifatida tan olinadi va kompaniyaning "millati" va shaxsiy qonuni (lex societatis) ro'yxatdan o'tgan davlat hisoblanadi.

Asosiy faoliyat ko'rsatiladigan joy nazariyasini qo'llaydigan davlatlar esa aksincha faqat nomigagina mavjud bo'lgan, ammo asosiy biznes faoliyatini boshqa davlatlarda amalga oshirayotgan ko'plab offshor kompaniyalar yuridik shaxs sifatida tan olmasligi mumkin. Misol uchun, *Überseering BV v Nordic Construction Company Baumanagement GmbH (C-208/00)* keysida bu holat yaqqol namoyon bo'lgan⁹. *Überseering BV* — Niderlandiyada tashkil etilgan kompaniya bo'lib, Germaniyada faoliyat yuritayotgan paytda u yuridik shaxs sifatida tan olinmagan. Bunga sabab *Überseering BV* kompaniyasi Germaniya hududida faoliyat olib borgan. Biroq, Germaniya sudlari asosiy faoliyat ko'rsatiladigan joy nazariyasiga tayanib, kompaniyaning haqiqiy boshqaruv markazi Germaniyada joylashgani bois, uni Germaniya qonunchiligiga muvofiq tashkil etilmagan deb topadi va shu sababli yuridik shaxs sifatida tan olmaydi. Natijada, *Überseering* Germaniya sudlarida da'vo kiritish huquqidan mahrum qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining qonuniga ko'ra offshor kompaniyalar xorijiy yuridik shaxslar sifatida tasniflanadi va ularning huquqiy maqomi inkorporatsiya nazariyasiga asoslangan holda belgilanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining¹⁰ 1175-moddasiga ko'ra, yuridik shaxsning qonuni — bu yuridik shaxs tashkil etilgan davlat huquqi hisoblanadi, ya'ni "lex societatis" kompaniya ro'yxatdan o'tgan yurisdiksiya qonunchiligiga asoslanadi. Shu bilan birga, 1177-moddaga asosan, O'zbekiston hududida xorijiy yuridik shaxslar, agar maxsus qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, fuqarolik qonunchiligi doirasida milliy rezidentlar bilan teng asosda tadbirkorlik va boshqa faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega. Bundan kelib chiqadigi offshor kompaniyalarning faoliyati O'zbekistonda cheklanmagan biroq O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 181-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va Markaziy banki boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan ofshor yurisdiksiyalardan ro'yxatdan o'tgan offshor kompaniyalar olib boradigan moliyaviy operatsiyalar monitoring qilib boriladi¹¹.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro xususiy huquqda offshor kompaniyalarning huquqiy maqomi murakkab va ko'p qirrali masala bo'lib, u davlatlarning milliy qonunchiligi hamda xalqaro huquq normalari bilan kesishadi.

Bu borada eng katta nazariy muammo kompaniyaning qaysi davlat qonunlariga bo'ysunishini belgilovchi ikki asosiy yondashuv — ya'ni, ro'yxatdan o'tgan davlat qonunlarini

⁹ Roth, W.-H. (2003). From Centros to *Überseering*: Free movement of companies, private international law and community law. *International and Comparative Law Quarterly*, 52(1), 177–208. <https://doi.org/10.1093/iclq/52.1.177>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. 1997.

¹¹ Kun.uz. (2020). O'zbekistonda Ofshor Yurisdiksiyalarning ro'yxati tasdiqlanadi. <https://kun.uz/82557902#!>

asos qiluvchi "inkorporatsiya nazariyasi" va kompaniyaning amalda faoliyat yuritayotgan joyini asos qiluvchi "asosiy faoliyat ko'rsatiladigan joy nazariyasi" o'rtasidagi tafovutdir. Ushbu ikki yondashuv amaliyotda kompaniyaning huquqiy maqomi va huquqiy javobgarligini aniqlashda katta tafovutlarga olib keladi.

Yana aniqroq qilib aytganda, offshor kompaniyalarining xalqaro-huquqiy maqomi hanuzgacha dolzarb bahs-munozaralar mavzusi bo'lib qolmoqda. Doimiy o'zgarib borayotgan global iqtisodiy sharoitda bu masala qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Xalqaro miqyosda kompaniyalar uchun yagona va uyg'unlashtirilgan huquqiy yondashuvni ishlab chiqish esa kelajakda offshor kompaniyalarni xalqaro tartibga solishni yengillashtiradi.

Xulosa va tavsiyalar

Xorijiy yurisdiksiyalarda ro'yxatdan o'tgan, ammo o'z faoliyatini boshqa mamlakatlarda amalga oshiradigan offshor kompaniyalarning huquqiy maqomini xalqaro xususiy huquq doirasida baholash — murakkab masaladir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, har bir davlat "lex societatis" — ya'ni kompaniyaga nisbatan qo'llaniladigan shaxsiy qonunni — o'zining huquqiy an'analari va yondashuvlariga asoslanib belgilaydi. Bunda asosiy ikki nazariya — inkorporatsiya (ro'yxatdan o'tgan davlat qonunchiligini qo'llash) va real joylashuv (amaliy boshqaruv joyiga asoslangan) — o'rtasidagi farqlar offshor kompaniyalarning tan olinishi va ularning faoliyatining huquqiy asosi borasida jiddiy qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki har bir davlatning iqtisodiy siyosati, moliyaviy manfaatlari va huquqiy tizimi turlicha bo'lganligi sababli, yuridik shaxslarning "millati" va ularga nisbatan qo'llaniladigan shaxsiy qonunni (lex societatis) belgilashda umumiy, yagona yondashuvga kelish qiyin. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi uchun offshor kompaniyalar faoliyatini tartibga solishda asosiy faoliyat ko'rsatiladigan joy nazariyasini (real seat theory) qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu orqali kompaniyaning faqatgina qog'ozda mavjud bo'lgan ro'yxatga olish joyi emas, balki haqiqiy iqtisodiy faoliyat yuritayotgan joyi asosida huquqiy maqomi baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rammello, S. (2001). *Corporations in Private International Law: A European Perspective*. Oxford University Press.
2. Осо́яну, Н. (2013). Правовое регулирование личного статуса юридического лица в международном частном праве. *Studii Juridice Universitare*, 3–4, 143–158.
3. Nougayrède, D. (2016). The use of offshore companies in emerging market economies: a case study. *Columbia Journal of European Law*.
4. Willoughby, P. (2012). Private International Law – Offshore Trusts and companies. *Amicus Curiae*, 1998(4). <https://doi.org/10.14296/ac.v1998i4.1617>
5. Schulze, H. C. A. W. (1995). Private international law and jurisdictional problems relating to offshore joint venture agreements. *The Comparative and International Law Journal of Southern Africa*
6. Гетьман-Павлова, И. В. (2011). *Международное частное право: Учебник (3-е изд., перер. и доп.)*. Москва: Эксмо

7. British Virgin Islands. (2004). Business Companies Act (No. 16 of 2004). Government of the Virgin Islands. http://www.bvi.gov.vg/sites/default/files/business_companies_act.pdf
8. Cambridge Gas Transportation Corp. v. Official Committee of Unsecured Creditors of Navigator Holdings Plc. (2006). UKPC 26. Privy Council. <http://www.bailii.org/uk/cases/UKPC/2006/26.html>
9. Roth, W.-H. (2003). From Centros to Überseering: Free movement of companies, private international law and community law. *International and Comparative Law Quarterly*, 52(1), 177–208. <https://doi.org/10.1093/iclq/52.1.177>
10. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. 1997.
11. Kun.uz. (2020). O‘zbekistonda Ofshor Yurisdiksiyalarning ro‘yxati tasdiqlanadi. <https://kun.uz/82557902#!>